

Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


Doimiy aholi soni.

Namangan viloyati doimiy aholisi soni 2020-yil 1-iyul holatiga 2834,7 ming kishini tashkil etib, 2020-yil boshidan 23,9 ming kishiga yoki 0,8 % ga o'sdi. Jumladan, shahar aholisi soni 1831,4 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 64,6 %), qishloq aholisi soni 1003,3 ming kishini (35,4 %) tashkil etdi.

E'tibor bering: 2020-yil yanvar-iyun


- Aholi soni **23,9 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **31,9 ming nafarni** tashkil etdi.
- **6,3 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **5,0 mingta nikoh** va **923 ta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Namangan viloyati aholisining umumiy o'sishi (2020-yil yanvar-iyun oylarida)




Demografik holat

Namangan viloyati bo'yicha aholi zichligi (2020-yil 1-iyul holatiga, 1 kv.km.ga kishi)



Aholi zichligi bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, Namangan viloyati bo'yicha 1 kv.kmga 380,8 kishi, aholining eng zich joylashuvi Namangan shahri (1 kv.kmga 4217,3 kishi), Namangan (886,9 kishi), To'raqo'rg'on (833,7 kishi) tumanlarga to'g'ri kelgan bo'lsa, aksincha holat Pop tumanida (75,8 kishi) va Mingbuloq tumanida (171,2 kishi) to'g'ri kelmoqda.

Namangan viloyati doimiy aholisi soni (2020-yil 1-iyul holatiga ming kishi)



Demografik holat

Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Tug'ilish. 2020-yilning yanvar-iyun oylarida 31,9 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsienti 22,7 promilleni tashkil etdi hamda 2019-yilning mos davriga nisbatan 0,6 promillega oshganligi (2019-yilning yanvar-iyun oylarida 22,1 promille bo'lgan) kuzatildi.


O'g'il bolalar:
16,8 ming nafar



Qiz bolalar:
15,1 ming nafar



Tumanlar (shahar) kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsienti (2020-yil yanvar-iyun, 1000 aholiga nisbatan, promille)



Demografik holat

Vafot etganlar. 2020-yilning yanvar-iyun oylarida 6,3 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,5 promilleni tashkil etdi, 2019-yilning mos davriga nisbatan manfiy 0,0 promillega teng (2019-yilning yanvar-iyun oylarida 4,5 promille bo'lgan).


Erkaklar:
3,3
ming kishi



Ayollar:
3,0
ming kishi



Tumanlar (shahar) kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti
(2020-yil yanvar-iyun, 1000 aholiga nisbatan, promille)




Demografik holat

2020-yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 56,3 %i - qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 9,0 %i - o'simtalardan, 4,4 %i - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 6,3 %i - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 5,6 %i - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,3 %i - yuqumli va parazitlar kasalliklaridan hamda 17,1 %i - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 430 nafarni tashkil etib, ularning 25,3 %i - perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 35,8 %i - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 18,6 %i - tug'ma anomaliyalardan, 2,3 %i - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 8,4 %i - yuqumli va parazitlar kasalliklardan va 9,6 %i - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (2020-yil yanvar-iyun holatiga, jami vafot etganlarga nisbatan, %)




Demografik holat

Nikoh. 2020-yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 5,0 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 3,6 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2019 yilning mos davriga nisbatan barcha shahar, tumanlarda kamaygan.

Tumanlar (shahar) kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsienti (2020-yil yanvar-iyun holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)




Demografik holat

Nikohdan ajralishlar. 2020-yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 923 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsienti 0,7 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar sonida 2019-yilning mos davriga nisbatan barcha shahar, tumanlarda kamaygan.

Tumanlar (shahar) kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsienti (2020-yil yanvar-iyun holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)



Migratsiya. 2020-yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 1,7 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 3,4 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 1,7 ming kishi bo'lib, 2019-yilning mos davrida minus 0,5 ming kishi bo'lgan.


Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2019-yil yanvar-iyun	2020-yil yanvar-iyun
Ko'chib kelganlar	2,6	1,7
Ko'chib ketganlar	3,1	3,4
Migratsiya saldosi	-0,5	-1,7




Demografik holat

Tumanlar (shahar) kesimida ko'chib kelganlar soni




Tumanlar (shahar) kesimida ko'chib ketganlar soni



Namangan shahridagi demografik holat. Namangan viloyatining markazi Namangan shahrining doimiy aholisi soni 2020-yil 1-iyul holatiga 632,6 ming kishini tashkil etib, 2019-yilga nisbatan 14,6 ming kishiga yoki 2,4 %ga o'sgan.

Namangan shahri aholisi tabiiy harakati (1000 aholiga nisbatan, promille)



2020-yilning yanvar-iyun oylarida 8,3 ming bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib mos ravishda tug'ilish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 26,6 promilleni tashkil etdi va 2019-yilga nisbatan 1,6 ga (2019-yilning mos davrida 25,0 promille bo'lgan) o'sdi.

2020-yilning yanvar-iyun oylarida 1,5 ming ta o'lim qayd etilgan. O'lim koeffitsienti 4,8 promilleni tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 0,2 promillega kamaydi (2019-yilning mos davrida 5,0 promille bo'lgan).

FHDYO organlarida 2020-yilning yanvar-iyun oylarida 733 ta nikoh va 162 ta nikohdan ajralishlar qayd etildi. 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 2,3 promilleni tashkil qilib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 2,1 promillega kamaydi. (2019-yilning mos davrida 4,4 promille bo'lgan).

Nikohdan ajralish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 0,5 promilleni tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 0,4 promillega (2019-yilning mos davrida 0,9 promille bo'lgan) kamaydi.